

NO'XOT O'SIB, RIVOJLANISHIGA TURLI OMILLARNING TA'SIRI

Amirqulova Nigora Baxriddinovna

Qarshi davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

Salimova Farzona Furqat qizi

Qarshi davlat texnika universiteti Irrigatsiya

muhandisligi fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya. O'simliklarning o'sib rivojlanishiga tuproq, iqlim, o'g'it, suv kabi bir qancha omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ya'ni, ushbu omillar ta'sirida o'simliklarning o'sishi va rivojlanishida umumiy bir yaxlitlik paydo bo'lib, o'simlik tanasida kechadigan fiziologik va biokimyoviy jarayonlar, ularning ildiz orqali va havodan oziqlanishi, o'sishi uchun energiya bilan ta'minlanishi, umuman, assimilatsiya va dissimilatsiyada ishtirok etuvchi barcha jarayonlar yig'indisi maqbul bo'ladi.

Аннотация. На рост и развитие растений влияют ряд факторов, таких как почва, климат, удобрения и вода. То есть под влиянием этих факторов создается общая целостность в росте и развитии растений, а физиологические и биохимические процессы, протекающие в организме растений, их питание через корни и из воздуха, обеспечение энергией для роста и в целом сумма всех процессов, участвующих в ассимиляции и диссимиляции, являются оптимальными.

Abstract. Several factors, such as soil, climate, fertilizer, and water, affect the growth and development of plants. That is, under the influence of these factors, a general integrity is created in the growth and development of plants, and the physiological and biochemical processes taking place in the plant body, their nutrition through the roots and from the air, the provision of energy for growth, and in general, the sum of all processes involved in assimilation and dissimilation are optimal.

Kalit so'zlar: Oqsil, dukkak, tuproq, iqlim, o'g'it, o'suv davri, ekish muddati, ekish, ko'chat qalinligi.

Ключевые слова: Белок, бобовые, почва, климат, удобрение, вегетационный период, дата посадки, посадка, толщина рассады.

Keywords: Protein, legumes, soil, climate, fertilizer, growing season, planting date, planting, seedling thickness.

O'simliklarning o'sib rivojlanishiga tuproq, iqlim, o'g'it, suv kabi bir qancha omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ya'ni, ushbu omillar ta'sirida o'simliklarning o'sishi va rivojlanishida umumiy bir yaxlitlik paydo bo'lib, o'simlik tanasida kechadigan fiziologik va biokimyoviy jarayonlar, ularning ildiz orqali va havodan oziqlanishi,

o'sishi uchun energiya bilan ta'minlanishi, umuman, assimilatsiya va dissimilatsiyada ishtirok etuvchi barcha jarayonlar yig'indisi maqbul bo'ladi.

No'xat dunyodagi eng muhim dukkakli ekinlardan bo'lib, inon ratsionida oqcil va aminokiclotalarning acociy manbai bo'lib xizmat qiladi. No'xat 50 dan ortiq mamlakatlarda, Avstraliya, Kanada, Hindiston, Eron, Meksika, AQSH va Rocciyada yetishtiriladi. Biroq no'xat ishlab chiqarish aholining oqcilga bo'lgan ehtiyojlarini qondira olmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishga e'tibor qaratilgan.

No'xat unumdorligiga atrof-muhitning calbiy omillari katta ta'cir ko'ratadi. Gullash paytida va don to'lish davrida yuqori harorat va qurg'oqchilik hocilni 40-45 % gacha kamaytirishi mumkin. Zamonaviy celeksiyaning acociy vazifaci o'zgaruvchan iqlim sharoitiga moc yuqori mahculdor navlarni yaratishdir. Keng va tizimli celeksiya ishlari natijacida bir qator yuqori mahculdor ctrec sharoitlarga chidamli no'xat navlari yaratilgan.

Keyingi yillarda turli tuproq-iqlim sharoitlarda, don-dukkakli ekinlar va qisqa navbatli g'o'za-g'alla almashlab ekish tizimlarida tuproq unumdorligini saqlash va oshirishga hamda ekinlarning hosildorligiga ta'sirini o'rganishda B.Xalikov, R.Tillayev, B.Izbasorov, F.Namozov, A.Iminov va boshqalar tomonidan ham bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.

O'simlikdagi dukkaklar va donlar soni qancha ko'p bo'lsa hosildorlik shuncha yuqori bo'ladi. Bu yilgi ob-xavo nazorat ko'chatzorida tabiiy tanlashga va tahlillar olib borishga imkon berdi. No'xatning don hosili uning miqdor va sifatiga ta'sir qiluvchi bir qancha tashqi muhit sharoitlariga bog'liq ravishda shakllanadi. Seleksiya ko'chatzorida o'rganilgan no'xat namunalarining biometrik tahlil qilinganda, eng asosiy ko'rsatgich o'simliklarda dukkaklar hosil bo'lishi, dukkaklar hosil bo'lishi fazasida qurg'oqchilikka o'ta chidamli namunalar hosil elementlarini saqlab qoldi va hosil olish imkoni borligi aniqlandi.

Tajribalarning eng asosiy maqsadi yuqori xosil bera oladigan va xar qanday iqlim sharoitda xam hosil elementlarini saqlab qolish imkoniyati bor bo'lgan chidamli nav va namunalarni tanlash va ishlab chiqarishga joriy etish. Hosildorlik maydon birligi to'g'ri keladigan o'simliklar soni, bir tup o'simlikdagi dukkaklar soni, bir tup o'simlikdagi donlar soni va 1000 dona don vazniga bog'liq.

Bir tup o'simlikdagi jami dukkaklar soni 65-72 tagacha hisoblandi. Yuqoridagi hisob-kitobdan kelib chiqib bir tup o'simlikdagi donlar soni 65-dan 77 tagacha don borligi aniqlandi. Har qanday tajribaning asosiy maqsadi yuqori hosil bera oladigan va xar xil tabiiy tashqi omillarga chidamli bo'lgan navlarni yaratishga qaratilgan.

Hosildorlik maydon birligi to‘g‘ri keladigan o‘simliklar soni, bir tup o‘simlikdagi dukkaklar soni, bir tup o‘simlikdagi donlar soni va 1000 dona don vazniga bog‘liq.

Barcha ekinlarning hosildorligi ko‘p jihatdan ular parvarish qilinadigan iqlim sharoitiga bog‘liq bo‘ladi. Ekin o‘stirish uchun iqlim sharoiti qanchalik qulay bo‘lsa, ekin hosildorligi ham bir xil agrotexnika sharoitida shuncha yuqori bo‘lishi mumkin. Iqlim sharoitining noqulay kelishi ekinlar hosilini ancha kamayishiga va mahsulot sifatining pasayishiga olib keladi.

O‘simliklarga tabiiy sharoitlarning ta‘sirini kamaytirish va har qanday sharoitda barqaror hosil olishni ta‘minlashga agrotexnik chora-tadbirlar bilan birga ekinlarning qurg‘oqchilikka, sovuqqa va boshqa tabiiy noqulayliklarga chidamli navlarni ishlab chiqarishga joriy etish muhim ahamiyatga ega, chunki bunday navlar noqulay sharoitlar ta‘siridan kam zarar ko‘radi va mazkur sharoitda chidamsiz navlarga nisbatan ancha ko‘p hosil to‘plash imkoniga ega bo‘ladi. Lalmi maydonlarda yog‘ingarchilik miqdorining tushishi lalmi o‘simliklarning o‘sib rivojlanishi, hosil elementlarini tuliq rivojlanishi, havo haroratining keskin isib ketish davriga qadar no‘xat o‘simliklari dukkak hosil qilib olishiga zamin yaratadi. O‘simlikdagi dukkaklar va donlar soni qancha ko‘p bo‘lsa hosildorlik shuncha yuqori bo‘ladi.

No‘xatning don hosili uning miqdor va sifatiga ta‘sir qiluvchi bir qancha tashqi muhit sharoitlariga bog‘liq ravishda shakllanadi. Nazorat ko‘chatzorida o‘rganilgan no‘xat namunalarining biometrik tahlil qilinganda, eng asosiy ko‘rsatkich o‘simliklarda dukkaklar hosil bo‘lishi, dukkaklar hosil bo‘lishi fazasida qurg‘oqchilikka o‘ta chidamli namunalar hosil elementlarini saqlab qoldi va hosil olish imkoni borligi aniqlandi.

O‘simlik o‘suv davrining davomiyligi navning alohida muhim ko‘rsatkichlaridan bo‘lib hisoblanadi. Bu xususiyat no‘xat o‘simligining genetik jihatidan irsiy tuzilishiga bog‘liq bo‘lishi bilan birga, uning qanday sharoitda o‘stirilayotganligiga, ya‘ni tuproq-iqlim va meteorologik sharoitlarga, o‘stirish agrotexnikasiga, ekish muddatiga ham bog‘liqdir.

Seleksiya ko‘chatzorida elita o‘simliklarning nasllariga mahsuldorligi va biokimyoviy-texnologik ko‘rsatkichlari bo‘yicha dastlabki taqqoslash ishlari va eng yaxshi nasllarni keyingi yillarda o‘rganish va ko‘paytirish uchun ajratish ishlari olib boriladi.

Ekinlarning biologik va ekologik xususiyatlarini o‘rganishda, ma‘lum tuproq va iqlim sharoitiga mos bo‘lgan ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqish va uni ishlab chiqarishga joriy etish natijasida mo‘l va sifatli hosil olish ta‘minlanadi

Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlardan olingan ma‘lumotlarga asoslangan holda, tadqiqotlarga ko‘ra no‘xat o‘simligining o‘simlikning vegetativ qismini rivojlanishiga ijobiy ta‘sir qiladi, ammo ko‘chat qalinligi ekish me‘yorida ortishi

o‘simlikning generativ organlari, ekinlarning shonalash davridan to‘la pishish davrlariga salbiy ta‘sir qiladi hamda hosildorlik ko‘rsatkichlari sezilarli kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. O‘zbekiston Respublikasini 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022-yil.
2. Abdulkarimov D.T. Qishloq xo‘jalik ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi. // SamarQand, 2002. 368 b.
3. Эшмирзаев К. Методические указания по проведению бонитировки богарных почв в хозяйствах Республики Узбекистан // Брошюра. – Ташкент, 1992. – 8 с.
4. Олейник П. П., Шукуруллаев П. Рост и развитие нута на богаре Узбекистана // В КН. Селекции и агротехника зерновых в Средней Азии. – Ташкент, 1966. – С.125-132.
5. Malhotra R. S. Chickpea Breeding. Germplasm program legumes. Annual Report For 1998. 74-75.
6. Германцев Н. И. Организация семеноводства и производства нута. // Зерновое культуры. – Москва, 1989. – №3. – С.24-25.
7. Завялова И. А. Рекомендации по возделывании нута на богаре Юго-Востоке Казгистана // Рекомендация. – Казгистан, 1996. – 29 с.
8. Доспехов Б. А. Методика полевого опыта с основами статистической обработки результатов исследований // М. Колос, 1973. - 336 стр.